

GAVHARSHODBEGIM MAJMUASINING TARIXIY VA MADANIYAHAMIYATI

*Kamoliddin Behzod nomidagi
Milliy rassomlik va dizayn instituti
San'atshunoslik va muzeyshunoslik
fakulteti 3-bosqich talabasi
Irgasheva Sojida G'olib qizi*

Annotatsiya: *Mazkur maqolada Temuriylar avlodining malikalaridan hisoblanmish Gavharshodbegimga atab Eronning Mashhad shahrida barpo etilgan majmuuning tarixiy va madaniy ahamiyati haqida so'z boradi.*

Kalit so'zlar: *Gavharshodbegim, temuriylar davri siyosati, gumbaz, majtua, masjid, maqbara, Boysung'ur dahmasi, minora, YUNESKO, koshin.*

Аннотация: В данной статье говорится об историческом и культурном значении комплекса, построенного в городе Мешхед (Иран) в честь Гавхаршодбегим, одной из цариц поколения Тимуридов.

Ключевые слова: Гавхаршадбегим, политика эпохи Тимуридов, купол, комплекс, мечеть, мавзолей, храм Байсунгур, минарет, ЮНЕСКО, изразец.

Annotation: This article talks about the historical and cultural significance of the complex built in the city of Mashhad, Iran, in honor of Gavharshodbegim, one of the queens of the Timurid generation.

Key words: Gavharshadbegim, politics of the Timurid era, dome, complex, mosque, mausoleum, Baysungur temple, minaret, UNESCO, tile.

Bugungi kunda tarixiy obidalarni tiklash va ularni o'rghanishga juda katta e'tibor qaratilmoqda. Xususan, Erondag'i Gavharshodbegim majmuasi ham hozirda ilmiy tadqiqot markazlaridan hisoblanadi. Inshoot Gavharshodbegimga atab bunyod etilgan bo'lib, dastlab Gavharshodbegim haqida to'xtalib o'tsak. Gavharshodbegim (Gavharshod og'a) (1379—1457) — temuriylar avlodidan bo'l mish Shohruxning xotini. Janglardan birida Chingizxonni o'limdan saqlab qolgan mulozim Qishlik avlod — chig'atoj zodagon G'iyosuddin taxxonning qizi. 1393-yil Shohruxga turmushga chiqqan va undan uch o'g'il Ulug'bek, Boysung'ur, Muhammad Jo'giy va ikki qiz ko'rgan. Shohrux davlatni idora qilishdan ko'ra ko'proq toat-ibodat, diniy kitoblar mutolaasi bilan mashg'ul bo'lmoqni afzal ko'rganidan, avval unga devon ishlarini boshqarishni, so'ng viloyat hokimlari va qo'shin sarkardalarini tayinlash, hatto kimga qanday in'om-u, kimga qanday jazo berish huquqini ham topshirib qo'ygan. Masalan, 1440-yil mashhur tarixchi — Fasih Ahmad Xavofiy Gavharshod beginning buyrug'i bilan ikki marta zindonga tashlangan .

Gavharshod begin saltanat taxtiga valiahd tayinlash borasida ham o'z ixtiyor bo'yicha ish tutib, Shohruxning Muhammad Jo'qini taxt vorisi qilib tayinlash niyatida ekanligiga qaramay, nabirasi Alouddavlani valiahdlikka munosib ko'radi. Chunonchi, u 1444-yil, Shohrux og'ir betob bo'lib qolganda maxfiy farmon bilan Alouddavlani

valiahdlikka tayinlaydi. Ammo, Shohrux tez kunda shifo topib, uning bu rejasi amalga oshmay qoladi. Gavharshod begin Qazvin, Ray, Qum viloyatlari hokimi — nabirasi Sulton Muhammad Hamadon va Isfahonni egallab, Sherozni qamal qilganda (1446) Shohrux bilan birgalikda unga qarshi qo'shin tortadida, Sulton Muhammadni isyonga undagan amaldorlar qatorida bir necha sayyidlarni ham qatl etmoqni Shoxruxdan qattiq talab qiladi. Shunda Shohrux uning so'ziga kirib, hatto Amir Temur ham qatl etmoqqa jur'at qilmagan sayyidlarni o'limga buyuradi. Sayyidlar dor ostida turib Shohruxni duoi bad qiladilar. Keyin, Shohrux Sherozdan Hirotga qaytayotib yo'lida 1447-yil 12 mart kuni to'satdan vafot etadi. Ushbu hodisani ba'zilar qarg'ish bilan bog'lashadi. Shundan so'ng Gavharshodbegim qo'shin qo'mondonligini nabiralaridan biri — Abdullatifga topshirib, Alouddavla Mirzoga Hirot mudofaa inshootlarini mustahkamlash zarurligi haqida maxfiy maktub yo'llaydi. Bundan ogoh bo'lgan Abdullatif buvisi Gavharshod beginni hibsga olib, otasi — Ulugbekka bobosi Shohruxning vafot etgani xususida xabar jo'natadi. Natijada temuriylar o'rtasida taxt uchun kurash boshlanib, 1458-yilda Sulton Abu Said Hirotni egallaydida, Gavharshodbegimni qatl qiladi. Gavharshodbegim Boysung'ur daxmasiga dafn qilingan. Ushbu dahma hozirgi kunda Gavharshodbegim maqbarasiga aylantirilgan .

Eronda joylashgan katta me'moriy yodgorlik 1418-1438 yillarda Gavharshodbegim buyrug'i bilan 20yil davomida barpo etiladi. Majmua masjid, madrasa va temuriylar avlodni maqbarasidan iborat tarzda qurilgan. Bosh me'mor — Shohruxning saroy me'mori Qavomiddin Sheroyi. Maqbara yoniga keyinchalik Husayn Boyqaro mahobatli Madrasa va xonaqoh qurdirgan. Katta kismi, jumladan madrasaning o'zi ham saqlanmagan, maqbara, 8 minoradan 1 tasi, masjid va madrasaning harobalarigina saqlanib qolgan. Musalloning bosh binosi — masjid 106x64 m maydonni egallaydi. Baland peshtoqdan masjid hovli (52x49 m) siga kiriladi. Hovlining atrofi 4 ayvon va ikki qavatlari turli xonalar bilan o'rالgan, u qurban va ro'za hayitlari, juma namozlarini o'qishga mo'ljallangan. Gavharshod begin madrasasi hovlining shimolida bo'lib, masjidning ham, madrasaning ham burchaklarida minoralar bo'lgan, ular marmar va koshin qoplab bezatilgan. Murabba tarhli maqbara 1432-yilda qurib tugallangan, ayniqsa, uning qovurg'ali gumbazi o'ziga xos jozibali. Gumbaz sirkor g'isht terib naqshlangan, uning qurilishida me'mor Imomiddin, hirotnik ustalar — Xoja Mirali Hiraviy va Xoja Mirak Hiraviylar qatnashgan. Ichkaridagi nozik va nafis naqqoshlik bezaklarini Boysung'ur Mirzo yaratgan. Minoralar tepasi qafasa bilan bezatilgan .

Mashhad (Eron) markazida Hirot hukmdori Shohrux Mirzoning xotini Gavharshod begin sharafiga me'mor Qavomiddin Sheroyi tomonidan qurilgan 1405-1419 yillarda masjid barpo etiladi. Atrofi ayvonli katta hovlining to'rt tarafida to'rt xona bo'lib, umumiy maydoni 55x45 metrni tashkil etadi. Ularning janubdagisi katta va gumbazli inshootdir. Unga minorali ulkan peshtoq orqali kirilgan. Minoralar tepasi qafasa bilan bezatilgan. Masjidga rangli koshinlardan nafis va go'zal bezaklar ishlangan. Masjidning shimoliy tomonida Imom Rizo maqbarasi, sharq tomonida Madrasa, g'arbida esa shahar karvonsaroyi joylashgan bo'lib, bular masjid bilan yo'lakcha orqali o'zaro bog'langan. Masjidga rangli koshinlardan nafis va go'zal bezaklar ishlangan. Masjid Safaviylar va Qojarlar davrida bir qator ta'mirlangan. Masjid va uning hovlisi ichidagi mozaik plitkalarda topilgan turli xil yozuvlar Safaviy shahzodalarining ismlari, masalan, Abbas, Shoh Sulton Xusayn, Shoh

Suleyman Safaviy va ularning maqbaraga bo'lgan sadoqatlari va masjidga qo'shgan hissalarini tasvirlaydi. Masjidning ikki qavatli gumbazi 1911 yilda Rossiya imperiyasi qo'shinlari tomonidan portlashlar natijasida jiddiy shikastlangan .

1935-yilgi qo'zg'olon gumbazni qayta qurishni talab qildi. Muhammad Rizo Pahlaviyning buyrug'iiga binoan, 1960-yillarda qadimiy gumbazdan plitkalar olib tashlangan va tashqi qobiq demontaj qilingan. Strukturaviy xavflarni bartaraf etish uchun temir ramka va sement qoplamlari yangi tashqi qobiq qurildi. Keyin gumbaz asl nusxaga o'xshash tarzda qayta taxlandi .

Maqbara dastlab Temuriylar hukmdori Shohruxning o'g'li, shahzoda Boysung'urning qabri uchun qurilgan. Maqbara gumbazsimon shaklga ega bo'lib, gumbazi o'rtasini qoplaydi. Bu gumbaz strukturining eng ta'sirchan xususiyati bo'lib, aslida u bir-birining ustiga o'rnatilgan gumbazlardan iborat: past ichki gumbaz, tashqi gumbaz va ular orasidagi strukturaviy gumbaz. Tashqi gumbaz gulli och-moviy-yashil mozaikalar bilan bezatilgan. Ichki gumbaz oltin barglar va murakkab naqshlarni hosil qiluvchi boshqa ranglar bilan bezatilgan. Qabrning ichki qismi eksa bo'shliqlari bo'lgan to'rtburchak xonadir. Maqbarada Gavharshod beginning o'zi va uning akasi Amir So'fi Tarxon,o'g'lillari Boysung'ur, Muhammad Juqi, Boysung'urning o'g'llari Sulton Muhammad va Ala uddavla, shuningdek, uning o'g'li Ibrohim qabrlari bor.

Maqbaraning hozirgi holati afsus bilan qayd etish kerakki,qoniqarli emas.Gumbazning shikast yetgan joylari bor,minora naqshlari to'kilgan.

YUNESKO homiyligida 2014-yildan boshlab italyan arxitektorlari loyiha ustida ishladilar,lekin ayrim sabablar tufayli loyiha oxiriga yetmadi,shunday bo'lisligha qaramay,maqbara hali hamon sayyoohlar diqqat e'tiborida.Afg'oniston va Erondag'i aksar mahalliy aholi Gavharshod beginni,garchi malikaning kelib chiqishi eroniylarga aloqasi bo'lmasa ham, "fors qirolichasi" deya e'tirof etishadi.

Hozirda Afg'oniston hukumati inshootni YUNESKOning butun jahon yodgorliklari ro'yxatiga kiritish ustida ish olib bormoqda. Bundan tashqari,2003-yildan Afg'oniston poytaxti Qobul shahrida maxsus ayollar uchun Gavharshod begin nomidagi Universitet faoliyatini boshlagan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. O'zbekiston Milliy Ensiklopediyasi. Birinchi jild. Toshkent, 2000-yil
2. Fayziyev T., Temuriylar shajarasi, T., 1995.
3. Petersen, Andrew. Dictionary of Islamic Architecture. Routledge, 2002 — 111 bet. ISBN 978-1-134-61365-6.
4. Cassar, Brendan. Keeping history alive: safeguarding cultural heritage in post-conflict Afghanistan. UNESCO Publishing, 2015 — 184 bet.
5. „Masjid-i Jami' Gawhar Shad“. Archnet.org. 2018-yil 29-iyulda asl nusxadan arxivlangan.